

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning _2022 yil 31 avgustdagi №UMO-16 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim		Harbiy tibbiy ekspertiza asoslari va o'smirlar tibbiyoti kafedrası		
O'quv dastur nomi		“O'smirlar tibbiyoti va uning bugungi muammolari o'quv dasturi”		
O'qish turi		Umumiy malaka oshirish		
O'quv dastur muallifi/ mualliflari		Rizayev R.M. Xolmuradov A.G. Fayziyeva Sh.R		
Siklning umumiy soati		144 kredit		
Циклда дарс берадиган ўқитувчи ва тренерлар				
				
Kafedra mudiri t.f.n.Rizayev R.M.		Assistent Xolmuradov A.G.		Assistent Fayziyeva Sh.R.
Maqsad		Professional kompetensiyasini yangilash asosida, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda, maxalliy va jaxon sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan holda, chaqiriluvchi va o'smir yoshdagilar harbiy tibbiy ekspertizasining bugungi kundagi vazifalarini bajara oladigan mutaxasis- o'smirlar shifokori tayyorlash.		
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent		Mudofaa ishlari bo'limidagi (MIBB) tibbiy komissiyalar tarkibida: xirurg, terapevt, nevropatolog, okulist, otolaringolog, dermatolog, stomatolog, psixiatr mutaxassislar ishtirok etadi. Zarur hollarda boshqa mutaxassislar ham jalb qilinishi mumkin.		
Sikl vazifalari		• harbiy tibbiy ekspertizasiga jalb etiladigan shifokor-mutaxassislarni harbiy tibbiy ekspertizaga taalluqli O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tanishtirish; • • shifokor-mutaxassislarni harbiy tibbiy ekspertizaga doir nazariy bilimlarini yangilash; • • harbiy tibbiy ekspertizaning asosiy tamoyillarini shifokor-		

	mutaxassislar kundalik ish faoliyatiga tadbqiq etishni yanada chuqurlashtirish; • harbiy tibbiy ekspertizasiga taalluqli O'zbekiston Respublikasining Prezidentining qarorlarini amaliyotga tadbqiq etishga yo'naltirish; • O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirishga doir vazirliklararo qarori talablarini mutaxassislarga yetkazish; • Qurolli Kuchlarda tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomdagi kasalliklar va jismoniy nuqsonlar jadvali talablarini harbiy xizmatga chaqiriluvchilar sog'lig'iga qo'yiladigan talablar bilan qiyoslash; • har bir shifokor-mutaxassisni o'z yo'nalishi bo'yicha kasalliklarga mos ravishda kasalliklar va jismoniy nuqsonlar jadvalidagi moddalarini amaliyotga tadbqiq etishni takomillashtirish; • harbiy tibbiy ekspertisasi kollegial xulosa chiqarish madaniyatini oshirish ko'nikmalarini berish; • harbiy tibbiy ekspertizada samarali uslublarini va tamoyillarni, yangi bilim, mahoratini va ko'nikmalarni shakllantirish; • harbiy tibbiy ekspertizada bo'yicha ma'lumotlarni izlash va ularni asoslarini baholash ko'nikmalariga o'rgatish; • harbiy-tibbiy ekspertiza organlari faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni yengishda kasbiy mahoratini oshirish; • chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga yaroqlilik toifasini aniqlashda faqat shifokor-mutaxassislar javobgarlik ekanligi hissini shakllantirish. • chaqiriluvchilarning sog'lomlashtirish ishlaridagi ko'nikmalarni o'zlashtirish.
Sikl tarkibi	1 Modul. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi va "Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonunlari 2 Modul. Harbiy-tibbiy ekspertiza asoslari va tamoyillari. 3 Modul. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy tibbiy ekspertizaga oid farmon va qarorlari. 4 Modul. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligining "O'R Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomi va unga kiritilgan o'zgartirishlar Dasturni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik ta'minoti O'quv bazasi: Respublika markaziy konsultativ-diaagnostika poliklinikasi. Toshkent shahar Yashnaobod tumani Qorasuv ko'chasi 25 uy. Dastur bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati: kompyuter, proyektor, doska, flebchat, marker. Modullar bo'yicha tavsiya qilinadigan o'quv uslubiy hujjatlar–qo'llanma, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning qarorlari, vazirliklararo qarorlar, tarqatma materiallar, nazorat savollari, qo'shimcha adabiyotlar, situatsion masalalar elektron nus'hada saqlanadi.

O'qish bazalari

**Respublika markaziy konsultativ diagnostika poliklinikasi
(asosiy baza).**

